

BO‘LAJAK TEXNOLOGIK TA’LIM O‘QITUVCHILARINI MAXSUS KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION TALIM TEXNOLOGIYALARI

Namangan davlat pedagogika instituti
Katta o‘qituvchisi PhD Sh.B.Tursunova.

Texnologik ta’lim 2-bosqich talabasi
G’aniyeva Iroda Erkinovna

Annotatsiya: Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini maxsus kompetentligini rivojlantirishning nazariy va amaliy g‘oyalaridan kelib chiqib maxsus kompetentlikni rivojlantirishning innovatsion ta’lim texnologiyalari bilan bir qatorda, oliy ta’lim tizimidagi interfaoli o‘qitish jarayoni va interfaol ta’lim vositalaridan salmoqli foydalanish imkoniyatlari

Kalit so‘zlar: Integrativ, kompetensiya, maxsus kompetensiya, kvazi-professional, strategik faoliyat, metodologik, muammoli ta’lim

Pedagogik nazariyaga ko‘ra, talabalarni ta’lim jarayonida va darsdan tashqari faoliyati yuqori malakali mutaxassis tayyorlash bo‘yicha didaktik jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda ularning mahsus kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni talabaning tashabbuskorligini kuchaytirish nuqtai nazaridan emas, balki ustozning intellektual, ma’naviy-irodali salohiyatning maxsus metodlari va vositalaridan foydalanish orqali talaba maqsadlari tomon safarbar etish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilishi kerak.

Shunday muhitni yaratish lozimki, unda talaba nafaqat pedagogik ta’sir ob’ekti, balki o‘zaro bog‘liq amaliy faoliyat sub’ekti sifatida ham faoliyat ko‘rsata olsin. Ta’lim jarayonida va o‘qishdan tashqari faoliyatni tashkil etishning ushbu yondashuvi uni amalga oshirishni ta’minlaydigan muayyan vositalarni qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Ta’lim-tarbiya jarayonida professor-o‘qituvchilar tomonidan qo‘llaniladigan ta’lim vositalari, shakllari va usullari shular jumlasidandir.

Talabalarning kasbiy malakasini rivojlantirish jarayonida darsdan tashqari faoliyatini faollashtiradigan usullarga kvazi-professional muhitni yaratuvchi o‘yinlar kiradi. Ular tezkor va strategik maqsadlar va ularning muvaffaqiyatli yutuqlari uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, professional kompetensiyasini oshirish uchun ta’lim-tarbiya jarayonida bilim va amaliy-kasbiy bilimlarni rivojlantiradi.

Ushbu sohada bilimlarni loyihalash deganda odatda pedagogik faoliyatining tayyorgarlik bosqichi tushuniladi. Uning asosi kashfiyot tashkil etadigan dolzarb muammoni hal qilishga mo‘ljallangan.

Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonining sifatini oshirishda fanlararo aloqadorlikka erishishning yangi shakllarini topish maqsadga muvofiqdir. Ushbu o‘rinda fundamental, xususan, pedagogik va texnik bilimlarni o‘zlashtirishda fanlararo uyg‘unlikni ta’minlash masalasini tahlil etish uchun ularning metodologik asoslari borasida yetarli ma’lumotlarga ega bo‘lish zarur. Pedagogik fanlarning gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy, matematika va tabiiy fanlar

hamda umummuhandislik fanlari bilan o‘zaro aloqasi ko‘p qirrali muammodir. Shu bois mazkur muammoga nazariy, metodologik va amaliy jihatdan yondashish taqozo etiladi.

Turli yo‘nalishlarga taalluqli bilimlar asoslarini integratsiyalash ularning fan, ta‘lim, texnika, texnologiya, ishlab chiqarish hamda iqtisodiyot sohalarida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarning ijtimoiy jihatdan asoslanishiga zamin yaratadi[36].

Shuni ta‘kidlash lozimki, talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda (ma‘ruza, amaliy, kurs ishi, mustaqil ta‘lim) ta‘lim shakllarining o‘zi yetarli emas. Bu jarayonda talabalarning malakaviy amaliyotlari, bitiruv malakaviy ishini ham inobatga olish zarur. Shu sababli, talabalarni ma‘ruza, amaliy, tajriba, kurs ishi va mustaqil ta‘limdan tashqari malakaviy amaliyoti va bitiruv malakaviy ishni bajarish hamda himoya qilishni tashkil etish jarayonlari kompleks o‘rganildi va pedagogik va ixtisoslik fanlar integratsiyasi mazmunini ishlab chiqishda e‘tiborga olindi.

Integrativ yondashuvlar asosida o‘qitishda xalqaro tajribalar asosida pedagogik mobillikni rivojlantirish bilan bog‘liq texnologiyalar va o‘qitish shakllarini qo‘llash maqsadga muvofiq. Bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan nazariy mashg‘ulotlarda “Buddying” metodi asosida olib bordik ushbu metodni qo‘llashda talabalar guruhda ishlagan holda rassom, dizayner, konstruktor va texnolog rollari ko‘rinishda rolli faoliyat shaklda olib boriladi. An‘anaviy o‘qitish metodlari sifatida quyida keltirilgan metodlarni keltirib o‘tish mumkin.

Mantiqiy o‘qitish metodlarining o‘ziga xos xususiyatlari shuki, unda o‘qitish jarayonini o‘qituvchining mehnat usullarini namoyish qilish va o‘quvchilarni unga taqlid qilishi asosida tashkil topadi.

Asosiy shartlari quyidagilardan iborat.

1. Topshiriqni aniqlash, uning maqsadi va bajarishni tushuntirish.
2. O‘quvchilarda zarur bilimlarning mavjud bo‘lishi.
3. Ta‘lim metod va usullarini shakllantirayotgan ko‘nikma va malakalarni xususiyatlariga moslash.
4. Instruktajning samaradorligi.
5. Mashqlarning etarli miqdorda va o‘quvchi malakasiga mos bo‘lishi.
6. O‘quvchilar faoliyatini o‘z vaqtida va ob‘ektiv baholash, o‘quvchilarni baholash natijalaridan xabardorligi.
7. O‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligi.

Ko‘rgazmali metodni asosan o‘rganiladigan obyektlar, jarayonlar va ularning tasvirini namoyish qilish va o‘quv qurollari bilan ishlash kabi usullar orqali amalga oshiriladi. Texnologik ta‘limda ko‘rsatmali metodning xususiyati shundan iboratki, bunda ko‘rsatmalilik ko‘pincha o‘quv materialiga ilyustratsiya sifatida emas balki uning o‘zi bilim manbai bo‘lib ko‘p hollarda esa ko‘nikma va malakalarni shakllantirish usuli bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu metod namoyish qilish, amalda ko‘rsatish va sayohat darslari sifatida tashkil etiladi.

Amaliy metodlar instruktaj va mashqlar orqali amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan instruktajga qo'yiladigan talablarni qarab chiqish maqsadga muvofiq:

1. Instruktaj jarayonida ta'limning har xil metod va usullarini omilkorlik bilan kombinatsiyalash.
2. Instruktaj mazmunini o'qituvchi asoslashi.
3. Instruktajni to'raligi va instruktajni elementlarga ajratish.
4. Instruktajda shunday ko'rsatmalar bo'lishi kerakki, o'quvchilar ular yordamida o'z faoliyatlarini nazorat qila olishlari lozim.

Texnologiya fani jarayonida tatbiq qilish har bir yangi operatsiyani qisqa muddatli mashqlarda boshlash maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatmoqda.

Ushbu o'quv mashg'ulotlari amaliy xarakterga ega bo'lgan darslar bo'lgani uchun bunday darslarni bayon etishda laboratoriya-amaliy metodi, mashq metodi va texnik adabiyotlar va hujjatlar bilan ishlash metodlaridan foydalaniladi.

Muammoli ta'lim g'oyalari har xil sabablarga ko'ra hali mehnat ta'limida keng qo'llanilmayotir. Buning sababi mehnat darslarida muammoli ta'limning samaraliligi emas, balki uni qo'llashning ma'lum qiyinchiliklar bilan bog'liqligidadir. Talabalar hamma o'quv materiallarining muammolarini mustaqil hal qilish yo'li bilan o'zlashtirishi **muammoli ta'lim** deyiladi. Bunda o'qituvchining tushuntirishi ham reproduktiv holati ham, nazariy ham talabalarning mashqlarini bajarishi ham bo'ladi.

Texnologiya fani darslarida muammoli ta'lim metodlari orqali quyidagi muammoli vaziyatlar hal etiladi.

1. Muammoni bayon etish, bunda pedagog mustaqil ravishda muammoli vaziyatni keltiradi va uning yechimini mustaqil qidiradi va topadi.

2. Pedagog mustakil ravishda muammoni ko'yadi, ammo uning echimini talabalarni jalb kilgan holda hamkorlikda izlaydilar, topadilar, xulosalaydilar.

3. Pedagog o'quv jarayonida o'quvchilar oldiga muammoni qo'yadi. o'quvchilar uni izlaydilar, axborot almashadilar, qayta ishlab, o'zlarining ishtiroklaridagina yechimini topadilar.

4. Muammoli vaziyat o'quvchilarning o'zlari vujudga keltiradilar. Uning yechimini boshqa o'quvchilar izlanishlari, yangicha fikrlashlari orqali o'zaro yechim qidiradilar, topadilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda oliy ta'lim tizimida talabalar maxsus kompetentligini rivojlantirishning o'ziga xos prinsiplari, qonuniyat va amalga oshirish metodlari mavjud bo'lib, talabalardan integrativ yondashuv asosida maxsus kompetentligini ilmiy-amaliy yondashuvlarni talab etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda integrativ yondashuv asosida maxsus kompetensiyani rivojlantirish maqsadida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, o'qitishning ta'lim vositalari, usullari va maqsadlarni integrativ tashkil etish, talabalarda maxsus kompetentligini rivojlantirish maqsadida o'quv-uslubiy va elektpon vocitalap majmyini yapatish talab etiladi:

–integrativ yondashuv asosida ta'limning o'ziga xos tomonlapini inobatga olish;

– maxsus kompetentlikka asoslangan ta’lim metodlapini ma’lum bir tartibda bajarish; – ta’lim jarayonida integrativ muloqotni tashkil etish; – integrativ yondashuv asosida maxsus kompetentlikni rivojlantiruvchi metodikalarni takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Казакбаева С. И., Турсунова Ш. Б., Курбонов А. А. КОМПЕТЕНЦИЯ УЧИТЕЛЯ ПРИ ПОВЫШЕНИИ РЕЗУЛЬТАТОВ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ //ББК 1 Е91. – 2018. – С. 215.

2.Турсунова Ш., Сотиволдиева Г. ТЕХНОЛОГИК ТАЪЛИМИ ЎҚИТУВЧИНИНГ ТАЪЛИМ ТАРБИЯ СИФАТИНИ ОШИРИШДАГИ КОМПЕТЕНЦИЯСИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 4. – №. 1. – С. 452-455.

3.Турсунова, Ш. Б. (2021). ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА БЎЛАЖАК ТЕХНОЛОГИК ТАЪЛИМИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 824-830.

4.Казакбаева С. И., Турсунова Ш. Б. СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ЛИЧНОСТНЫЕ КАЧЕСТВА УЧИТЕЛЯ КАК СОСТАВНАЯ ЧАСТЬ ИМИДЖА ПЕДАГОГА //ПРОРЫВНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ КАК ДВИГАТЕЛЬ НАУКИ. – 2019. – С. 205-207.

5.Bakhromovna, T. S. Characteristics of the Teacher of the Future Technological Education. *JournalNX*, 7(05), 170-173.